



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI UCHUN YANGI BOZORLAR
VA IQTISODIY IMKONIYATLAR**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti

Xalqaro munosabatlar fakulteti

1-bosqich talabasi Nasritdinov Javohir Nodirjon o‘g‘li

Email: nasriddinovjavohir507@gmail.com

Annotatsiya: So‘nggi yillarda Respublikamizning tashqi iqtisodiy faoliyati ancha samarali bo‘ldi. Xususan, o‘tgan 2025-yilda respublikamizning jami tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard dollarga yetdi. Bunda eksport miqdori 33,8 milliard dollarni, import miqdori esa 47,3 milliard dollarni tashkil etdi. Biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash natijasida milliy ishlab chiqarishimiz ortib, yangi bozorlarga ehtiyoj tug‘ildi.

Kalit so‘zlar: yangi bozorlar, tashqi savdo aylanmasi, qo‘shma loyihalar, “Made in Uzbekistan“, “Baghdad International Fair“, Afrika davlatlari, Pokiston bilan strategik sheriklik.

**НОВЫЕ РЫНКИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ
ДЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

Аннотация: В последние годы внешнеэкономическая деятельность нашей республики была весьма эффективной. В частности в 2025 году общий внешнеторговый оборот нашей республики достиг 81.2 миллиард долларов. Объем экспорта составил 33.8 миллиард долларов. В результате поддержки бизнеса и частного предпринимательства увеличилось наше отечественное производство и возникла потребность в новых рынках.

Ключи: новые рынки, внешнеторговый оборот, совместные проекты, “Сделано в Узбекистане“ “Багдадская международная ярмарка“, страны Африки

**NEW MARKETS AND ECONOMIC OPPORTUNITIES
FOR THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**



Abstract: *In recent years, the foreign economic activity of our republic has been quite effective. In particular, in 2025, the total foreign trade turnover of our republic reached 81,2 billion dollar. The volume of exports amounted to 33,8 billion dollar and imports 47,3 billion dollar. As a result of supporting business and private entrepreneurship, our national production has increased, and the need for new markets has arisen.*

Keywords: *new markets, foreign trade turnover, joint projects, “Made in Uzbekistan“, “Baghdad International Fair“, African countries.*

Kirish

Davlatlarning iqtisodiyotiga jiddiy ta‘sir etuvchi omillardan biri bu eksport hisoblanadi. Yangi bozorlarga kirish eksport hajmini oshiradi. Respublikamizning tashqi savdo aylanmasi 2025-yil yakuniga ko‘ra 81,2 milliard dollarga yetib, (2024-yilga nisbatan 20,7% ga) ortdi. Bunda tashqi savdo aylanmasining yuqori ulushi Xitoy(21,2%), Rossiya(16%), Qozog‘iston(6,1%), Turkiya(3,7%) va Koreya Respublikasi(2,1%) hissasiga to‘g‘ri keladi. Eksport mahsulotlari quyidagilar: ip-kalava, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari, turli kimyoviy o‘g‘itlar, rangli metallurgiya (metal buyumlar), don, meva-sabzavot, avtomobil, transport uskunalari¹. Shu o‘rinda, Prezidentimizning quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tish lozim:

“Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug‘ maqsadimiz – Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratamiz. Yangi O‘zbekiston – bu, avvalo, yangi iqtisodiy munosabatlar, yangi iqtisodiy dunyoqarash demakdir“.

Shu sababli, joriy 2026-yilning 15-yanvarida Prezidentimiz raisligida Tashqi ishlar vazirligi hamda xoriydagi diplomatik vakolatxonalar faoliyati yuzasidan videoselekt majlisi o‘tkazildi. Majlis davomida O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi miqdori ortganligi, yurtimizning iqtisodiy imkoniyatlari, yangi bozorlarga chiqish masalalari ko‘rib chiqilib, soha bo‘yicha mas‘ullarga kerakli topshiriqlar

¹ How has Uzbekistan's foreign trade changed in 2025? © 2008-2026 «Gazeta»



berildi. Xo'sh, O'zbekiston Respublikasi uchun qanday yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlari mavjud? Ushbu maqolada shularni batafsil ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston tovarlari eksporti uchun yangi va yirik bozorlardan biri bu- Iroq Respublikasi hisoblanadi. Iroqda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish bo'yicha so'nggi ma'lumotlariga ko'ra Iroq aholisi 45 million kishidan oshgan va bu katta iste'mol bozorini shakllantiradi.² Iroqda O'zbekistonning qishloq xo'jaligi, maishiy texnika, qurilish, transport mahsulotlariga ehtiyojlar mavjud. Ushbu ehtiyojlarni qondirish va o'zaro savdo hamkorligini yo'lga qo'yish maqsadida joriy yilning 14-yanvar sanasida poytaxtimizda O'zbekiston-Iroq qo'shma biznes forumi bo'lib o'tdi.³ Forum doirasida O'zbekiston savdo-sanoat palatasi hamda Iroq savdo-sanoat federatsiyalari o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumi imzolandi. Bojxona jarayonlarini soddalashtirish maqsadida "Yashil yo'lak" (Green Corridor) tizimini joriy etish va Iroq hududida O'zbekiston savdo uyini ochish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Joriy yilning 1-7-fevral kunlarida Iroq poytaxtida "Baghdad International Fair" xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Ko'rgazmada 200 nafarga yaqin tadbirkorlarimiz "Made in Uzbekistan" brendi ostida o'z mahsulotlari bilan ishtirok etishdi. 1000kv.m maydonda ishlab chiqaruvchilarimizning eng sara mahsulotlari- oziq-ovqat, to'qimachilik, yengil sanoat, qurilish materiallari hamda elektrotexnika kabilar namoyish etildi. Bundan tashqari ko'rgazma davomida Iroq standartlashtirish va sifat nazorati tashkiloti(COSQCH) bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash bo'yicha hukumatlararo bitim loyihasini ishlab chiqish to'g'risida kelishuvlarga erishildi. Ma'lumot uchun, "COSQCH" faoliyati 1979-yildan boshlangan hamda ushbu

² / Zulfiya Karimova <https://daryo.uz/2024/11/27/iroqda-37-yilda-ilk-bor-aholi-royxatga-olinib-ularning-soni-ochiqlandi> © «Simple Networking Solutions» MChJ, 2013–2025

³ / What agreements were reached at the Uzbekistan-Iraq Investment and Business Forum?
<https://uza.uz/posts/806840>



tashkilot Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO), Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC), Islom mamlakatlari standartlari va metrologiya institute (SMIIC), Xalqaro o'lchov va tarozilar byurosi (BIPM) a'zosi hamda CIPM MRA imzolovchisi hisoblanadi.

Bugungi kunda tovarlarimiz Afrikaning ko'plab davlatlariga eksport qilinayotganligini hisobga olib, Afrika qit'asini ikkinchi yirik bozor sifatida keltirishimiz mumkin. Afrika 50dan ortiq davlat va 1.5 milliard aholiga ega hudud hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi qit'adagi 22 davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Misr, Marokash, Jazoir, Tunis va Janubiy Afrika Respublikasi shular jumlasidan. Ushbu davlatlar ichida- Misr O'zbekistonning asosiy hamkoriga aylangan. Misr O'zbekiston uchun Afrika bozorlariga kirish darvozasi hisoblanadi. O'tgan 2025-yilning sentyabr oyida ushbu masala yuzasidan O'zbekiston va Misr-Afrika tadbirkorlari uyushmasi (EABA) o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi⁴. Uchrashuvda tomonlar o'zaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, to'qimachilik va logistika sohaslarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish borasida fikr almashdilar. Bundan tashqari uyushma a'zolarining O'zbekistonga, yurtimiz kompaniyalarining esa Afrika bozorlariga kirib kelishiga ko'maklashish, o'zaro investitsiya va eksport salohiyatini oshirish, tadbirkorlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yish borasida yaqindan hamkorlik qilishga kelishib olindi. Ma'lumot uchun, "EABA" Misr va Afrikadagi yirik kompaniyalarni birlashtirgan, Afrikadagi 20 ta davlatda o'z vakolatxonalariga ega uyushma hisoblanib, tarkibida qishloq xo'jaligi, turizm, sanoat, telekommunikatsiyalar, infratuzilma, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash, qurilish va boshqa sohalarni qamrab olgan 22 ta qo'mita mavjud. Ushbu hamkorlik kelgusida Afrika davlatlari bilan o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalar rivojini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda Yurtimizning Pokiston Islom Respublikasi bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalari rivojlanib bormoqda. Xususan, joriy yilning 5-6-fevral kunlari Prezidentimizning Pokistonga rasmiy davlat tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif

⁴ "KARVON-INFO" AXBOROT PORTALI "<https://caravan-info.uz/uz/ekonomika/957797-v-kaire-obsudili-perspektivy-investitsiy-i-torgovli-mezhdu-uzbekistanom-i-afrikoy.html>



davomida O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasida do‘stlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash hamda siyosat, savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport, logistika va gumanitar sohalardagi amaliy hamkorlikni kengaytirish bilan bog‘liq asosiy masalalar muhokama qilindi⁵. Janubiy Osiyoda joylashgan va bugungi kunda 250millionga yaqin aholiga ega bo‘lgan ushbu davlat energiya resurslari, sanoat mollari, oziq-ovqat va xomashyo importyori hisoblanadi. O‘zbekiston va Pokistonning 2024-yildagi ikki tomonlama savdo aylanmasi 400 million dollardan oshib, qo‘shma korxonalar soni 130taga yetgan edi. 2025-yilda esa savdo aylanmasi 450 million dollarga yetdi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, ip-kalava, kimyoviy tovarlar va transport xizmatlarini eksport qilsa, Pokiston O‘zbekistonga farmatsevtika, to‘qimachilik, oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlarini yetkazib beradi. Bundan tashqari, Transport-logistika hamkorligini rivojlantirish ancha strategik ahamiyatga ega. Chunki, O‘zbekiston to‘g‘ridan-to‘g‘ri dengizga chiqish imkoniga ega bo‘lmagan davlatlardan biri hisoblanadi. Eksport va importning asosiy qismini quruqlik orqali amalga oshiradi. Bu esa transport xarajatlarini oshiradi. Dengizga chiqadigan eng qisqa yo‘l Afg‘oniston va Pokiston hududidan o‘tadigan yo‘l (Termiz-Mozori Sharif-Qobul-Peshovar) bo‘lib, O‘zbekiston mahsulotlarini Pokistonning Karachi va Gvadar portlari orqali dengizga olib chiqishi mumkin. Shu sababli, O‘zbekiston Pokistonning ushbu portlari orqali dengizga chiqishga alohida ahamiyat bermoqda.

Bugungi kunda yangi bozorlarga chiqish har bir davlat iqtisodiyoti uchun dolzarb masala hisoblanadi. Negaki, tashqi iqtisodiy aloqalarni oqilona amalga oshirish iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishga imkon beradi. Iroq, Misr va Pokiston yurtimiz eksportining yangi yo‘nalishlari bo‘ladi. Bundan tashqari, Yevropa va Osiyoning ko‘plab davlatlarida (Buyuk Britaniya, Fransiya, Malayziya, Koreya) O‘zbekiston mahsulotlariga talab yuqori. Jumladan, O‘zbekiston o‘g‘itlar,

⁵ Ўзбекистон ва Покистон ўртасидаги иқтисодий ҳамкорлик: янги бозорлар ва транспорт интеграцияси <https://uza.uz/posts/undefined>



kimyoviy mahsulotlar, un va kraxmal mahsulotlarini ushbu davlatlarga eksport qilishda nisbiy ustunlikka ega.⁶

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ¹ How has Uzbekistan's foreign trade changed in 2025? © 2008-2026 «Gazeta»

2.2/ Zulfiya Karimova <https://daryo.uz/2024/11/27/iroqda-37-yilda-ilk-bor-aholi-royxatga-olinib-ularning-soni-ochiqlandi> © «Simple Networking Solutions» MChJ, 2013–2025

3. ¹/ What agreements were reached at the Uzbekistan-Iraq Investment and Business Forum?
<https://uza.uz/posts/806840>

4. ¹ "KARVON-INFO" AXBOROT PORTALI "<https://caravan-info.uz/uz/ekonomika/957797-v-kaire-obsudili-perspektivy-investitsiy-i-torgovli-mezhdu-uzbekistanom-i-afrikoy.html>

5¹ Ўзбекистон ва Покистон ўртасидаги иқтисодий ҳамкорлик: янги бозорлар ва транспорт интеграцияси <https://uza.uz/posts/undefined>

6. ¹ O‘zbekiston eksportida yangi bozorlar haqida ma’lumot berildi <https://xabar.uz/lha8>

⁶ O‘zbekiston eksportida yangi bozorlar haqida ma’lumot berildi <https://xabar.uz/lha8>